

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI. OG'ZAKI VA SINXRON TARJIMA MASALALARI

Xolboyeva Dildora

O'zDJTU Xorijiy tillar va adabiyoti 2-fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada uzoq tarixga ega bo'lgan tarjimalar sohasida, qayta izlanishlar va nazariyalar, shu bilan birgalikda uning keng tarqalgan turlari bilan tanishish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Funksiya, professional tarjima, mentalitetlar, sinxronist, konferensiyalar, tilshunoslik psixologiyasi, sinxronist, formalizm.*

Kirish:

Zamonaviy dunyoda tarjimonlik faoliyati yanada keng ko'lamli va ijtimoiy mazmun kasb etmoqda. Hozirgi kunda jamoatchilikning ko'p qismi ham qiziqish bildirib kelmoqda va buning natijasida tarjimonlik kasbi ham bo'lib boryabdi. Shubhasiz, tarjima inson faoliyatining juda qadimiy turidir. Insoniyat tarixida tillari bir -biridan farq qiladigan odamlar guruhlari paydo bo'lishi bilanoq, turli tillar, jamoalar o'rtasidagi muloqotni amalga oshirishga yordam bergan yana bir guruh odamlar paydo bo'lgan. Bularni aynan tarjima sohasida shug'ullangan odamlar deya olamiz. Shunday ekan, tarjima-insonlar o'rtasidagi tillararo suhbatlarni amalga oshirishga imkon beradigan katta ijtimoiy funksiyani bajarib keladi. Yozma tarjimalarning rivojlanishi nafaqat bizning balki boshqa xalqlarning madaniy yutuqlariga yo'l ochadi, masalan adabiyot va madaniyatlarning hamkorligiga, o'zaro boyib borishiga imkon beradi. Garchi odatda "bir tildan boshqa tilga" tarjima haqida gapirsakda, lekin bu jarayonda osonlik bilan tildan tilga almashtirib qo'yilmaydi. Yuqorida keltirganimdek tarjimada turli madaniyatlar, shaxslar, mentalitetlar, adabiyotlar asarlar urf-odatlar va boshqa narsalar bir-biri bilan bog'liqdir. Tarjimaga oid nazariyalardan biri bu tarjima ilmiy-nazariy tadqiqot obyekti bo'lishi kerak. Tarjima tilshunoslik, psixologiya, madaniyat, adabiy jarayon va boshqa omillarni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Ba'zi professional tarjima xizmatlari bilan kontentingiz nafaqat tildan tilga o'giriladi, balki to'g'ri formatlanadi. Bunga misol tarzida ikki turdagi tarjima turini keltirishimiz mumkin, bularda matn, so'z, gaplarni turli tillardan boshqa tilga almashtiriladi, aynan shu xizmatlarda asl xabarlar o'zgarmasligicha qoladi.

Tarjima turlari katta tushunchaga ega bo'lib uning og'zaki va sinxron turlarini alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin. OG'ZAKI TARJIMA. ushbu tarjima tinglash, tushunish, tahlil qilish va xabarni belgilangan vaqtda yetkazish kabi jihatlari mavjud. Tarjimon -o'z ona tilida eshitgan so'zlarini boshqa chet tilga tarjima qilishi yoki boshqa tildan iboralarni tillarga tarjima qilinishi tushuniladi. Og'zaki tarjima shubhasiz, qiyin ish, chunki u butunlay inson aqliga tayanadi, lekin uning yana bir murakkab turi mavjud. SINXRON TARJIMA. bu katta anjumanlar, konferensiyalar xalqaro miqyosdagi uchrashuvlarda til bilmaydigan ishtirokchilar uchun amalga oshiriladi. Bu

tarzda faoliyat olib boruvchilar sinxron tarjimon yoki sinxronist deyiladi. Bu kabi turida, tarjimon tarjima qilish xonasida o'tiradi va naushniklar orqali so'zlovchini tinglab, so'ng tinglash chog'ida mikrofon orqali tarjima qiladi. Bularga qo'shimcha tarzda imo-ishoralar orqali ham bajariladi (kar soqovlar uchun). Albatta bu tarjima turini qiyin deyishimizga qaramay, ko'plab samaradorlikka erishamiz ya'ni bir vaqtning o'zida tarjima jarayoni amalga oshiriladi. Ijodiy tarjima so'zma-so'z tarjimaga ham, o'zgartiruvchi erkin tarjimaga ham zid tushunchadir. Ijodiy tarjima orqali kitobxonga manzur bo'ladigan so'z san'ati namunasi hosil qilinadi. Shuning uchun badiiy adekvat tarjima ijodiy tarjima hisoblanib, bu asl nusxaga sodiq qolishni taqozo etadi. So'zma-so'z va hijjaviy tarjima. Ya. I. Resker "doslovnii" va "bukvalniy" terminlarining ma'nolari boshqa-boshqa bo'lib, ularni bir-biri bilan aralashtirish yaramasligini alohida qayd etgan edi: "so'zma-so'z va hijjalab tarjima qilish degan ikki xil tushunchani aralashtirmaslik kerak. Hijjalab tarjima qilish, turli-tuman tillarning so'zlari o'rtasidagi nuqul tashqi, shakliy o'xshashlikka asoslangan mexanik tarjimadir. Bu tarjima sohasidagi formalizmdir. So'zma-so'z tarjima esa "so'zni-so'z" bilan, hech narsani almashtirmasdan yoki qayta guruhlashtirmasdan qilingan tarjimadir. Hijjalab tarjima qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. So'zma-so'z tarjima esa muayyan hollarda qonuniy hodisadir".

Demak tarjima nazariyalari, tarjima turlarining asosiy jihatlarini keltirib o'tdik. Shu bilan birgalikda inson faoliyatida keng talqin qilinib keladigan tarjima sohasi chuqur mulohazalarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A guide to consecutive translation. "tafakkur bo'stoni" Amanjan Mo'minonov, Toshkent 2023.
2. FORUM translation -2023 3(23) dec, www.oriens.uz
3. Iriskulov M.T. Kambarov.N.M.
4. Tukhtaeva K.D. translation theory and practise part1. Toshkent "tafakkur avlodi" 2021
5. "The Routledge Companion to Translation Studies" — MUNDAY JEREMY (2009) 285p